

MAQSUD SHAYXZODA-IKKI XALQNING DILBANDI.

*Toshkent Davlat Transport universiteti
Transport tizimlari boshqaruvi fakulteti*

3-bosqich talabalasi

Xushnazarova Zarnugor Botir qizi

zarixushnarova@gmail.com

2-bosqich talabasi Temirova Madina Toxir qizi

vitaminkamadinka092@gmail.com

ANNOTATSIYA. Bizlar buyuk mutafakkir ajdodimiz shoir Mir Alisher Navoiyga bag'ishlab kecha va tadbirlar o'tkazganimizda ul zotni "G'azal mulkingning sultoni" deb ataymiz. Bu ta'rifni ilk marotaba qo'llagan shoir Maqsud Shayxzoda hayotimizda yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan shaxs sifatida shakllangan. she'riyat, do'st, e'zozlash, dramalar

KALIT SO'ZLAR. Ozarbayjon, qadr, iste'dod, tarjimon, mutafakkir,

Atoqli shoir va mutafakkir Maqsud Shayxzoda 1908-yil Ozarbayjonning Ganja viloyatidagi Agdash (Oqtosh) shahrida tug'ildi. U yoshligidan she'riyatga qiziqdi. O'zining e'tirof etishicha, hali alifboni egallamasdan oldin she'r yarataboshladi. Ijod na'munalari ona vatanida ko'z ochdi, lekin ilg'or fikrlari tufayli ta'qibga uchrab, 1929-yil Toshkentga ko'chib keladi. Shundan boshlab umrining oxirigacha O'zbekiston unga ikkinchi vatan bo'lib qoldi. Toshkentda shoir bir qator gazeta va jurnallarda ish boshlaydi, oliy o'quv yurtlarida dars beradi, shu qatori Nizomiy nomidagi TDPU da ilmiy faoliyat dlib bordi. Uning ko'pdan ko'p tadqiqotlari o'zbek adabiyotshunosligi rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Maqsud Shayxzodaning o'zbek adabiyotiga, madaniyati ravnaqiga qo'shgan hissasi mustaqil O'zbekiston va uning hukumati tomonidan munosib e'zozlandi. Qator maktab va ko'chalar uning nomi bilan taqdirlangan. Maqsud Shayxzoda bundan tashqari 2001-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Shoir hech qachon, kitobiy, sun'iy muammolarni izlamadi. U eng avvalo, o'zini hayajonga solgan, o'zidagi fuqarolik va poetik hujayralari ko'zini ochgan masalalarga murojaat etadi. Shoir uyg'otgan yog'dular kitobxon qalbi, shuurga ham ko'chib o'tadi. O'zining yangi umrini boshlaydi. Uning she'rlarida, ayniqsa, chiroyli badiiy obrazlar mo'ldir. Shoirga ba'zan dengizdagi nuqtadek qayiq "suv ustidagi xol" bo'lib tuyulsa, ba'zan chag'alaylar quyrig'i "Ufqqa berilgan savol" bo'lib jaranglaydi.

Shayxzoda she'rlari "Chorak asr davomida", "Dunyo boqiy", "Xiyobon" singari o'nlab to'plamlarda bosilib chiqdi. Bu she'rlar yuksak insoniy orzular bilan yashayotgan zamondosh xayollari, muhabbati, dardlari, umidlari bilan kuylandi.

To'g'ri, qirq yil davom etgan ijodida Shayxzoda Lenin, Kreml, sho'rolar, irga va firqaviylarni ham kuyladi. Lekin bu zamon va tuzumning shoir taqdiri va ijodidagi muhridir. Biroq Shayxzoda she'riyatining qimmatini bu yo'nalishdagi asarlar bilan emas, inson qalbining nozik va betakror holatlarini nafis va ko'tarinki, umidvor aks ettirib, o'quvchida shunday go'zal onlarning yanada boyishida xizmat qiluvchi asarlari bilan belgilanadi. Shayxzoda shoirning asosiy vazifasini "inson ruhini tarbiyalash, odamda yaxshilik unsurlarini ko'paytirish, xalqqa go'zallik va nafosat tuyg'usini yanada baland darajada ko'tarishda" deb bilgan edi.

Umr shomiga yaqin Shayxzoda bir xatti- harakatlari, dunyoga qarashi, atrofdagilarga munosabati, xususan, ichki va tashqi istarasi bilan qator judoliklarni boshdan kechirdi. 1966-yilda yaqin do'sti, buyuk shoir G'afur G'ulom, munosabatlari yaqin bo'lgan ulkan davlat arbobi Usmon Yusupov vafot etdi. Bu yo'qotishlar shoir yuragida kuchli aks sado berdi: "G'afurga xat" va "Ayriliq"(Usmon Yusupov xotirasiga) nomli she'rlar yaratildi.

Insonni qadrlash, har bir qalbning munosabat muammolarini badiiy yoritish Shayxzoda she'riyatining etakchi yo'nalishini tashkil etadi. Shoir o'zi ham hayotga bir qator adolatsizlikka ro'barsh keldi. O'tgan asrning 20-yillarida nohaq quv-quvga uchradi, 50-yillar avvalida nohaq qamalib chiqdi. Bular bari beiz o'tmadi, albatta: Do'stlar, yaxshilarni avaylab saqlang! "Salom" degan so'zning salmog'in oqlang! O'lganda yuz soat yig'lab turgandan - Uni tirigida bir soat yo'qlang!

"Ayriliq" she'rida shu poetik g'oya yanada chuqurlashtirildi. Asar XX asr o'rtalarida O'zbekistonga rahbarlik qilgan, xalqning sevimli farzandi xotirasini ulug'lashga qaratilgan bo'lsa-da, vmohiyatan, xalq, Vatan uchun fidoyi siymolar nomini abadiylashtirish, ularga hurmat bajo keltirish keltirish maqsadlariga qaratilgan. Yurak kichik, lekin o'ziga ko'p narsani sig'dirishi mumkin. Yo'qotilgan insonning katta-kichigi bo'lmasa-da, do'st ayrilig'ini, Vatanning sevimli farzandidan judolikni yurakka sig'dirish qiyin ekan, deydi shoir: Motamning o'lchovi sig'mas yurakka, Faryodlar achchig'i tepar ko'krakka.

"Ayriliq" she'rining ayniqsa, so'nggi ikki misrasi e'tiborli:

Ammo uning bevaqt o'limiga, oh,

Senda ham, menda ham bor jindek gunoh!

Maqsud Shayxzoda adabiyotini o'zbek "Jaloliddin Manguberdi", "Mirzo Ulug'bek" nomli tarixiy dramalar bilan boyitdi. Shekspir, Bayron, Maxmumquli, Tagor, Avetik Isaakyan, Nozim Hikmat asarlarining o'zbek tiliga o'girilgan qator namunalarida Shayxzodaning yuksak tarjimonlik san'ati namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 5-sif adabiyot darsligi "Sharq" nashriyoti 2015 yil
2. <https://saviya.uz>
3. <https://library.ziyonet.uz>